

MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNI O'ZBEK MILLIY MUSIQA OHANGLARI ORQALI ESHITISH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH VA MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH

Nematova Gulshan Ramazonovna

*Buxoro viloyati Pisixologiya va Xorijiy tillar insituti
musiqa yo'nalishida 1-kurs magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab yoshidagi bolalarning o'zbek milliy musiqa ohanglari orqali eshitish qobiliyatini rivojlantirish va ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalalariga bag'ishlangan. Bolalarning musiqiy ta'limi orqali nafaqat ularning estetik didi shakllantirilishi, balki milliy o'zlikni anglash, tarixga hurmat va madaniy merosni qadrlash tuyg'ulari ham rivojlantirilishi mumkinligi asoslanadi. Maqolada milliy musiqaning bolalarga ta'siri, uning pedagogik imkoniyatlari, shuningdek, o'quv jarayonida milliy musiqa asarlaridan foydalanishning samarali usullari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari o'qituvchilar, musiqa pedagoglari va ota-onalarga bolalarni milliy musiqa orqali tarbiyalash va ularning eshitish qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so'z: Maktab, tadqiqot, pedagog, meros, musiqa, tuyg'u, tarbiya, tarix, muammolar, rivojlanish, ohang, madaniyat, estetika, tavsiyalar.

Аннотация: Эта статья также основана на формировании слушания детей школьного возраста через Узбекские национальные музыкальные технологии, а также влияние национальной идентичности, эффективных методов ее педагогической операции, а также эффективных методов использования национальных музыкальных произведений в образовательном процессе. Результаты поиска экзотизируемых дают практические рекомендации для учителей, учителей музыки и родителей через национальную музыку через национальную музыку и развитие их навыков слуха

Ключевое слово: Школа, исследования, педагог, наследие, Мус, культура, история, проблемы, развитие, развитие, завтра, культура, эстетика, рекомендации

O'zbekistonning boy madaniy merosining ajralmas qismi bo'lgan milliy musiqa, yosh avlodni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Maktab yoshidagi bolalarning o'zbek milliy musiqa ohanglari orqali eshitish qobiliyatini rivojlantirish va ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Mamlakatimizda jismoniy sog'lom, ma'naviy yetuk, har tomonlama uyg'un va barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish vazifasini izchil davom ettirish mas'uliyati, eng avvalo, oila zimmasidadir. Ma'naviy-ruhiy sog'lom bolaning dunyoga kelishi masalasiga sog'lom va ahil oila mehnatining samarasi sifatida qarab, oilada

o‘zaro hurmat va mehr-muhabbat, yuksak axloqiy va ma’naviy qadriyatlar muhitini shakllantirish bugungi kunda har birimizning vazifamiz hisoblanadi. Bu vazifani bajarishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘rni judayam katta.

Milliy musiqa bolalarning estetik didini shakllantirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, milliy o‘zlikni anglash, tarixga hurmat va madaniy merosni qadrlash tuyg‘ularini uyg‘otishga yordam beradi. Milliy musiqaning bolalarga ta’siri, uning pedagogik imkoniyatlari, shuningdek, o‘quv jarayonida milliy musiqa asarlaridan foydalanishning samarali usullari atroflicha o‘rganiladi. Maqsad - milliy musiqa orqali bolalarni tarbiyalash va ularning eshitish qobiliyatini rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqaradi.

Maktab yoshidagi bolalarni milliy musiqa orqali tarbiyalashning ahamiyati:

Eshitish qobiliyatini rivojlantirish: Milliy musiqa ohanglari bolalarning eshitish qobiliyatini rivojlantiradi, musiqiy ritmni his qilish, ohangni farqlash va musiqiy asboblarning ovozi ajratish qobiliyatini shakllantiradi. Milliy musiqa o‘zbek xalqining tarixi, madaniyati, urf-odatlar va an’analari bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Bolalar milliy musiqa orqali o‘z xalqining qadriyatlarini o‘rganadi va ularga hurmat ruhida tarbiyalanadi. Milliy musiqa bolalarning ma’naviy olamini boyitadi, ularda go‘zallikni his qilish, mehr-oqibatli bo‘lish va o‘zgalarning dardiga sherik bo‘lish kabi his-tuyg‘ularni uyg‘otadi. Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash: Milliy musiqa bolalarda vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantiradi, ularni o‘z yurtining tarixi, madaniyati va an’analari bilan faxrlanishga o‘rgatadi.

Estetik didni shakllantirish: Milliy musiqa bolalarda estetik didni shakllantiradi, ularni go‘zal musiqani tinglash va undan zavqlanishga o‘rgatadi.

Maktabda milliy musiqa orqali tarbiyalash usullari:

- Milliy qo‘shiqlarni o‘rgatish: Bolalarga o‘zbek xalq qo‘shiqlarini o‘rgatish, ularning mazmunini tushuntirish va ohangini yod olishga yordam berish.
- Milliy cholg‘u asboblari chalishni o‘rgatish: Bolalarni doira, dutor, rubob, g‘ijjak va boshqa milliy cholg‘u asboblari chalishga o‘rgatish, ularning musiqiy qobiliyatini rivojlantirish.
- Milliy musiqaning tarixi va nazariyasini o‘rgatish: Bolalarga o‘zbek milliy musiqasining tarixi, janrlari, uslublari va mashhur kompozitorlari haqida ma’lumot berish. Maktabda milliy musiqa to‘garaklarini tashkil etish, bolalarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirish va o‘zbek xalqining madaniy merosini o‘rganishga qiziqishini oshirish.

Milliy musiqaga oid tadbirlar o‘tkazish: Maktabda milliy musiqaga oid konsertlar, festivallar, tanlovlar va viktorinalar o‘tkazish, bolalarning musiqiy ijodkorligini rag‘batlantirish.

Muzeylarga va konsert zallariga ekskursiyalar uyushtirish: Bolalarni muzeylarga va konsert zallariga ekskursiyalar uyushtirish, ularning milliy musiqa va madaniyat bilan bevosita tanishishiga imkon yaratish.

O‘z ustida ishlash: O‘qituvchilarning o‘zlari ham milliy musiqa bo‘yicha bilimlarini oshirib borishlari, yangi o‘qitish metodlarini o‘rganishlari va o‘z mahoratlarini takomillashtirishlari zarur.

Maktabdan tashqari ta’lim muassasalarining roli:

Musiqa maktablari bolalarga milliy cholg‘u asboblari chalinib professional darajada o‘rgatishlari mumkin. San’at markazlari bolalar uchun milliy musiqaga oid turli xil to‘garaklar, kurslar va master-klasslar tashkil etishlari mumkin. Bolalar ijodiyot saroylari bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan turli xil musiqiy dasturlarni taklif etishlari mumkin.

- Milliy musiqa albomlari va notalari to‘plamlari: Bolalarga moslashtirilgan milliy musiqa albomlari va notalari to‘plamlaridan foydalanish. Milliy musiqaga oid veb-saytlar, onlayn darslar va interaktiv o‘yinlardan foydalanish. Milliy musiqaga oid kitoblar, maqolalar va boshqa materiallardan foydalanish.

Musiqashunoslar va folkloristlar bilan hamkorlik: Milliy musiqani o‘qitish bo‘yicha mutaxassislardan maslahat olish va ularning tajribasidan foydalanish.

XULOSA

Maktab yoshidagi bolalarni o‘zbek milliy musiqa ohanglari orqali eshitish qobiliyatini rivojlantirish va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash - bu jamiyatimiz uchun muhim vazifa. Ushbu maqsadga erishish uchun maktablar, ota-onalar, ta’lim muassasalari va jamiyatning barcha a’zolari birgalikda harakat qilishlari zarur. Respublikamizda umuminsoniy qadriyatlar va milliy madaniyatimizni asoslarini e’tiborga olib ta’lim-tarbiya mazmunini va milliy mafkurani shakllantirib borish imkoniyatlari yaratilmoqda. Bunga xalq og‘zaki ijodi, pedagogikasi, mutafakkir, ma’rifatparvar pedagog va olimlarning tarbiyaga axloq-odobga doir g‘oyalarini o‘rgatib komil insonni ishlari amalga oshmoqda.”Kelajak bugundan boshlanadi”³ deydi dono xalqimiz. Yosh avlodni kelgusi hayoti uni inson qilib ko‘rsatuvchi ruhiy va ma’naviy jarayonning mezonini belgilaydi. Bu borada ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish va dunyo talablari darajasiga olib chiqish ta’limni ilg‘or tajribalar asosida boyitib borish, yangi pedagogic tajribalar asosida olib boorish ayniqsa muhimdir.

Xalq musiqasi og‘zaki ijodiyoti, an’analari,urf-odatlari asosida barkamol avlodni voyaga yetkazish ularni ko‘proq o‘z millatini sevishga g‘ururlanishga shorqano g‘oya va ta’limotlarni o‘rganib ularni kelajakka tadbiq etishga zamin yaratiladi.